

## **KOMPETENSIYALARGA YO‘NALTIRILGAN BAHOLASH MEZONLARI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH**

**Berdimuratova Dilnura Rahmatillayevna**

Osiyo Xalqaro Universiteti MM13-P-25 1-kurs magistr

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida kompetensiyalarga yo’naltirilgan baholash tizimining ahamiyati, uning nazariy asoslari va amaliyotda qo’llanilishi tahlil qilinadi. Kompetensiya asosidagi baholash metodlari o’quvchilarning malaka va ko’nikmalarini aniq aniqlashga yordam beradi va sifatli ta’limni ta’minlaydi.

**Kalit soʻzlar:** kompetensiya, baholash mezonlari, ta’lim sifatini baholash, ko’nikmalar, o’quv natijalari.

**Аннотация:** В статье анализируется значение системы компетентностного оценивания в современном образовательном процессе, ее теоретические основы и практическое применение. Методы компетентностного оценивания помогают точно определить квалификацию и навыки учащихся и обеспечить качественное образование.

**Ключевые слова:** компетенция, критерии оценивания, оценка качества образования, навыки, результаты обучения.

**Abstract:** The article analyzes the importance of the competency-based assessment system in the modern educational process, its theoretical foundations and practical application. Competency-based assessment methods help to accurately determine the qualifications and skills of students and ensure quality education.

**Keywords:** competence, assessment criteria, assessment of the quality of education, skills, learning outcomes.

## **KIRISH**

So‘nggi yillarda ta‘limda kompetensiyalarga yo‘naltirilgan yondashuvlar dolzarb bo‘lib qolgan. An‘anaviy baholash tizimi ko‘pincha bilimni yodlash va nazariy tushunchalarni tekshirishga qaratilgan bo‘lsa, kompetensiyalarga yo‘naltirilgan baholash o‘quvchining amaliy ko‘nikmalari, ijodiy fikrlashi va real vaziyatlarda bilimni qo‘llash qobiliyatini baholashga xizmat qiladi. Kompetensiya tushunchasi bir necha jihatdan qaraladi: u – bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifatlar va motivatsiyani o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan sifatlar majmui sifatida ta‘riflanadi. Shu sababli, baholash mezonlari aniq va mos keladigan kompetensiyalar bilan bog‘lanishi zarur.

Ta‘lim jarayonida samarali baholash tizimi nafaqat o‘quvchining yutuqlarini aniqlaydi, balki pedagogni ham o‘quv jarayonini optimallashtirishga yo‘naltiradi. Kompetensiyalarga yo‘naltirilgan baholash tizimi o‘quv natijalarini faqat testlar orqali emas, balki loyihalar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar va baholash jurnallari yordamida ham baholash imkonini beradi

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Respublikamizda xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o‘rta ta‘limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me‘yoriy asoslari yaratildi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida umumiy o‘rta ta‘lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish vazifalari belgilib berilgan. Bu ta‘lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta‘minlash, ularni o‘zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi[1]. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan

ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi.

Maktab ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limini amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim[2].

O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan[5].

Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[6].

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan[2].

Bu esa ushbu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fizika faniga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Evropa tajribasiga tayangan holda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, shakllantiriladigan ta'lim kompetensiyalarini tanlash va

ularni ta'lim tizimiga singdirish orqali respublikamizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish mumkin.

Kompetentlik haqida gap ketganda «bilim darajasi» sifatida «u yoki bu ob'yektning mohiyatan realligini tafakkur qila olish» masalasining nazariy jihatlarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Shaxsning kompetentligi qanday aniqlanadi? A.V.Xutorskiyning ishlarida kompetensiya va kompetentlik ta'riflari, xususan «...ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs – kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi[3]. V.V.Serikovning ishlarida kompetentlikka «o'qimishli, bilimli, ko'nikmali bo'lish usuli shaxsiy o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir» deb izoh beriladi[4].

Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan,

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.

“Kompetensiya” atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha “campetere”-muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

“Tashabbuskorlik” kompetensiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlar bilan voqeaga samarali ta'sir ko'rsata olish. Doimo izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni, qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish. Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetensiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatda o'qituvchi tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo'ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma'lum kompetensiyaga moslashtiriladi. Test o'quvchining

ushbu kompetensiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Uning natijalariga ko'ra, o'quvchining kompetensiyani egallash darajalari aniqlanadi.

Keng ma'noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvaffaqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatidir. Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv o'quvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi.

Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezon bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

Amaliy kompetentlik - bilim mahsuli bo'lib, amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo'lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada samarali qo'llay olish qobiliyatidir.

## **XULOSA**

Hozirgi zamon maktab o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi va kobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari.

O'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi,

faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Barakaevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(1).
2. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
3. Қораев, С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. "Таълим, фан ва инновация", 2(2), 45- 50.
4. Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 1078-1084.
5. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 1281-1286.
6. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 1(02), 132-137.
7. Adbujalilova, S. A., & Koraev, S. B. (2020). Талабалар илмий дунёқарашини шакллантиришда педагогик технологияларнинг ўрни. *Academic research in educational sciences*, (4).
8. Караев, С. Б. (2018). Современные пути совершенствования учебнопроизводственных комплексов, специализированных на профессиональной подготовке учащихся. In *Психология и педагогика на современном этапе* (pp. 30-36).